

ERON TASHQI SIYOSATIDA MANFURANING MILLIY MANFAATLAR VA XAVFSIZLIKGA TA'SIRI

Sultonboyev Asadbek Ulug'jon o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17408379>

Annotatsiya. Eron Islom Respublikasi siyosatda o'ziga xos jihatlariga ega. Shulardan eng muhimi – ‘milliy manfaat va xavfsizlik’ning islomiy mafkurasi bilan o'zaro nisbatini aniqlash masalasidir. Ushbu masalani o'rganishda Oliy Rahbar – Imom Xomeyniy qarashlari markaziy rol o'ynaydi. Tashqi siyosatda ideologik asoslar, milliy xavfsizlik va milliy manfaatlar tahlil qilinadi. Xomeyniy idealizm va realizizmni o'zida uyg'unlashtirgan yetakchi sifatida milliy manfaatlar va milliy xavfsizlikni zaruriy yo'nalish sifatida qabul qilgan, biroq ularni sof dunyoviy yondashuv doirasida emas, balki islomiy mafkura mezonlari asosida talqin qilgan.

Uning qarashlarida islomiy ideologiya milliy manfaatlar va milliy xavfsizlikdan ustun turuvchi, siyosiy islomning ajralmas markaziy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Xomeyniy yondashuvi tashqi siyosatda ideologiyaning hukmronligi hamda realizmni uyg'unlashtirishni ifodalaydi. Bu yondashuv inqilobdan keyingi Eronni xalqaro siyosatda oqilona harakat qiluvchi kuch sifatida namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Imom Xomeyniy, islomiy ideologiya, milliy manfaatlar, milliy xavfsizlik, Eron tashqi siyosati.

THE IMPACT OF IDEOLOGY ON NATIONAL INTERESTS AND SECURITY IN IRAN'S FOREIGN POLICY

Annotation. As a state inspired by Islamic political thought, the Islamic Republic of Iran possesses distinctive characteristics in foreign policy. The most significant among them is the issue of determining the relationship between “national interests and security” and its Islamic ideology. In studying this matter, the views of the Supreme Leader, Imam Khomeini, play a central role. The ideological foundations, national security, and national interests in foreign policy are analyzed. Imam Khomeini, as a leader who combined idealism and realism, accepted national interests and national security as essential directions, but interpreted them not within a purely secular approach, but based on the criteria of Islamic ideology. In his views, Islamic ideology is manifested as a central and inseparable component of political Islam, standing above national interests and national security. Khomeini's approach expresses the dominance of ideology in foreign policy while also integrating realism. This approach presents post-revolutionary Iran as a rational actor in international politics.

Keywords: Imam Khomeini, Islamic ideology, national interests, national security, Iran's foreign policy.

ВЛИЯНИЕ ИДЕОЛОГИИ НА НАЦИОНАЛЬНЫЕ И БЕЗОПАСНОСТЬ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация. Как государство, вдохновлённое исламской политической мыслью, Исламская Республика Иран обладает особыми чертами во внешней политике. Наиболее важной из них является проблема определения соотношения между «национальными интересами и безопасностью» и исламской идеологией. В изучении данного вопроса центральную роль играют взгляды Верховного лидера — Имама Хомейни. Анализируются идеологические основы, национальная безопасность и национальные интересы во внешней политике.

Имам Хомейни, как лидер, объединивший в себе идеализм и реализм, принимал национальные интересы и национальную безопасность как необходимые направления, однако трактовал их не в рамках сугубо светского подхода, а на основе критериев исламской идеологии. В его воззрениях исламская идеология выступает как центральный и неотъемлемый компонент политического ислама, превосходящий национальные интересы и национальную безопасность. Подход Хомейни выражает господство идеологии во внешней политике, а также её сочетание с реализмом. Такой подход представляет постреволюционный Иран как разумного актора в международной политике.

Ключевые слова: *Имам Хомейни, исламская идеология, национальные интересы, национальная безопасность, внешняя политика Ирана.*

KIRISH

Eron Islom Respublikasi tarixan milliy-davlatlar bilan ko'plab o'xshash jihatlariga ega bo'lsada, ayrim farqlari ham mavjud. Eron Islom Respublikasining eng asosiy farqli jihati uning legitimligini ta'minlovchi islom ideologiyasidir. Shu jihatdan Eron Islom Respublikasi "Vestfaliya" davridan keyin din va mazhab asosida tashkil topgan birinchi milliy davlat hisoblanadi. Islom mafkurasi Eron Islom Respublikasining barcha tuzilmalariga asos bo'lib xizmat qiladi. Islom inqilobi natijasida tashqi siyosat o'zgarishga yuz tutdi. Avval AQSh, Isroil, Yevropa va AQShning Yaqin Sharqdagi ittifoqchilari bilan aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosat o'rniga G'arb va Isroilga qarshi kurash siyosati shakllandi. Shu bilan birga Yaqin Sharqdagi g'arbparast hukumatlar va sekulyar tuzumlarga qarshi turuvchi inqilobiy va islohotchi harakatlarni qo'llab-quvvatlash tashqi siyosatning asosiy yo'nalishiga aylandi. Eron tashqi siyosatidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri inqilobdan keyin AQShning ta'sirini tugatish bo'ldi. 1979-yilda yuz bergan Eron inqilobi xalqning shohning ichki siyosatiga qarshi chiqishidan tashqari, uning tashqi siyosatidan ham noroziligini ifodaladi. So'nggi ellik yil davomida o'z mamlakatlarida g'arbona tizimlar va sekulyar ideologiyalarni joriy etishga urinib kelgan podsho hokimiyati muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Panarabizm, sotsializm, kapitalizm, marksizm va patriarxiya kabi ideologiyalar xalqlarning ehtiyojlarini qondirishda muvaffaqiyatsizlikka uchradi, natijada mintaqadagi ko'plab ziyoli oqimlar diniy modellar sari yuz burdi¹.

Eron Islomiy inqilobi diniy modellar sari bunday burilishlarning yorqin namunasidir. Bu modelning ta'siri tashqi siyosatda ham yaqqol ko'rinadi. Islomiy tamoyillar tashqi siyosatdagi asosiy tushunchalarning qayta ta'riflanishiga olib keldi. Mazkur maqola tashqi siyosatda ikki asosiy tushuncha — "milliy xavfsizlik" va "milliy manfaatlar" ustidan islomiy ideologiyaning ta'sirini tahlil qiladi. Xususan, Imom Xomeyniy siyosiy qarashlarida Islomiy tizimning milliy manfaatlar bilan nisbatni saqlaydi. U bu nisbatning bir tomonini kuchsizlantirish yoki zaiflashtirishni xohlamaydi, balki ularni o'zaro "dialektik manfaatdorlik" (ikki tomonlama foyda) asosida bog'lashga harakat qiladi.

Xusrav Qobadiy o'zining magistrlik dissertatsiyasida "Eron Islomiy inqilobida milliy manfaatlar va islomiy ideologiya o'rtasidagi nazariy munosabat" mavzusini tadqiq etadi. U milliy manfaatlar va islomiy ideologiya o'rtasidagi ikki asosiy yondashuvni moslik va qarama-qarshilikni tahlil qiladi.

¹ نى نشر: تهران. ايران اسلامى جمهورى خارجى سياست بررسى برائى تحليلى چارچوبى. (۱۳۸۶) اللہ روح، رمضانى.

Doktor Muhammad Hasan Xoniy o'zining "Xalqaro munosabatlarda axloq va manfaatlar nisbati" nomli kitobida quyidagicha fikr yuritgan: "Axloq va manfaat o'rtasidagi munosabat qanday? Hukmron yondashuv tanqid qilinish, axloq va manfaat o'rtasida ziddiyat deb xalqaro munosabatlarda siyosiy aktyorlardan birini tanlashga majbur qilganini ta'kidlaydi"².

Shohruz Ibrohimiy fikricha, "tashqi siyosatning ikkita yirik nazariy modeli tahlillari shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda ideologiya tashqi siyosatda ikkinchi darajali rol o'ynaydi.

Ammo Eron Islom Respublikasida ideologiya birinchi darajada. Unga ko'ra, Eron tashqi siyosatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda tashqi siyosat milliy manfaatlarga mos keladigan tarzda shakllangan. Umuman olganda bu sohada mavjud ishlarda ikki xil qarash mavjud:

Ijobiy yondashuv — milliy manfaat yoki milliy xavfsizlik va ideologiya o'rtasida muvofiqlik izlash.

Salbiy yondashuv — ideologiyani milliy manfaat va milliy xavfsizlikka zid va ularni buzuvchi unsur sifatida ko'rish³".

Mazkur maqola Oliy harbar Xomeyniy qarashlari asosida islomiy ideologiya va milliy xavfsizlik va milliy manfaatlarini Eron tashqi siyosati doirasida tahlil qiladi.

Nazariy asos

Xomeyniy tashqi siyosatini uchta asosiy tushuncha – ideologiya, strategiya va diplomatiya asosida shakllantiradi. Tashqi siyosat har doim ichki va tashqi omillar asosida tahlil qilinadi. Ichki omillar – davlatning o'z ichki tuzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan geografik joylashuv, etnik va diniy tarkib, tarixiy tajriba, siyosiy tizim va elita xususiyatlari, tabiiy resurslar, iqtisodiy sharoit va harbiy qudrat. Tashqi omillar – xalqaro siyosiy tizim va mintaqaviy kichik tizimlardagi o'zgarishlarga taalluqlidir.

Ushbu tadqiqot esa tashqi siyosatning ichki omillariga, xususan, inqilobiy rahbarning ideologik qarashlariga alohida urg'u beradi va ularni tashqi siyosatning boshqa shakllantiruvchi omillari bilan solishtiradi.

Imom Xomeyniy xarizmatik inqilobiy rahbar sifatida islomiy-e'tiqodiy asoslar asosida tashqi siyosat olib bordi. Uning siyosatidagi bosh g'oya islomiy tamoyillardir. Shu sababdan tashqi siyosatdagi asosiy tushunchalar milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik Xomeyniy yondashuvi asosida shakllandi⁴. Natijada Eron tashqi siyosatida bu tushunchalarning yangicha va o'ziga xos talqini shakllandi. Uning strategik va geosiyosiy masalalarga e'tibori, asosan, Eron Islomiy inqilobi oldida yuzaga kelgan real tahdidlar va oqibatlardan kelib chiqqan.

Ayniqsa 1980 yilda boshlangan Eron-Iroq urushi va inqilobning ilk yillaridagi xalqaro bosimlar uning tashqi siyosatidagi strategik qarashlarni mustahkamladi. Imomning diplomatiya borasidagi yondashuvi esa xalqaro tizimda mavjud bo'lgan asosiy tamoyillarni qisman qabul qilish va boshqa aktyorlar, ayniqsa, islomiy, inqilobiy va betaraf davlatlar bilan konstruktiv aloqalarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi. Xulosa qilib aytganda, ideologiya, strategiya va diplomatiya birgalikda Eron tashqi siyosatini shakllantiruvchi asosiy uch unsurdur. Shu bois Eron tashqi siyosatini va undagi islomiy ideologiyaning rolini anglash uchun ushbu uch unurni birgalikda o'rganish lozim.

Ideologiya, strategiya, diplomatiya tushunchalari asoslari

² اسلام جهان های پژوهش فصلنامه. «لبنان در ایران اسلامی جمهوری عمومی دیپلماسی». (۱۳۹۲) امیر، صدر فاطمی و محمد حسن، الاسلامی شیخ

۴۹-۷۴، صص ۴، شماره ۴، سوم سال

³ تهران، (ع) صادق امام دانشگاه انتشارات، ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست شکافی کالبد کتاب

⁴ صص ۴، شماره ۴، پنجم سال، اسلام جهان های پژوهش فصلنامه. «شناختی هستی رویکرد: الملایین روابط و اسلام». (۱۳۹۴) داوود، زندی غرایق ۱۱۳-۱۳۶.

Ideologiya. Karl Mannheim ideologiyani jamiyatning ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq holda shakllanadigan, bir-biri bilan chambarchas aloqadagi fikrlar tizimi va tajribaviy usullar majmui sifatida ta'riflaydi⁵.

Ideologiya (mafkura) siyosatga oid ochiq yoki tizimli e'tiqodlar majmui bo'lib, keng ko'lamdagi g'oyalar, nazariy va amaliy asoslarni o'z ichiga oladi. Ideologiya doirasida e'tiqod va qarashlarga yo'naltirilgan harakatlar tahlil qilinadi. Shunday ekan, hukmdorlar ideologiya yordamida muayyan umumiy doirani belgilaydilar. U barcha muammolarga aniq yechim bermaydi, balki siyosatning strategik yo'nalishini belgilaydi. Masalan, bir millat tashqi siyosatda diplomatik yo'lni tanlaydimi yoki kuchdan foydalanadimi, bu qaror ko'proq ideologiya tomonidan belgilanadi. Shuningdek, ideologiya siyosiy tanlovlarni oqlash vazifasini ham bajaradi. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, Imom Xomeyniy nazaridagi islomiy ideologiya faqat umumiy shiorlardan iborat emas. U musulmonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi va hayotning barcha sohalarida amaliy dastur sifatida namoyon bo'ladi.

Islomiy tafakkurda ideologiya hayotni boshqarish ilmining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Murtazo Motahhari ta'rificha, "ideologiya — bu "inson kamolotini va jamiyat farovonligini ta'minlashni asosiy maqsad qilib olgan, umumiy, izchil va uyg'un nazariya hamda dasturdir".

Unda asosiy yo'nalishlar, usullar, zarur va man etilgan amallar, yaxshi va yomon narsalar, maqsadlar va vositalar, ehtiyojlar va ularning yechimlari, burchlar va majburiyatlar aniq belgilangan bo'lib, barcha insonlar uchun ilhom manbai bo'ladi⁶.

Amaliyot darajasida din — aynan ideologiyadir. Olimning fikricha, "Din — biz ko'proq ishlatadigan tushuncha, u dunyo, Xudo, inson va oxirat haqidagi e'tiqodlar va qarashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u shaxsiy va ijtimoiy hayotda qanday yashash, qanday bo'lish kerakligi haqidagi qator amaliy ko'rsatmalarni ham qamrab oladi". Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozimki, islomiy ideologiyani "islomiy fundamentalizm" bilan bog'lash noto'g'ridir.

Chunki fundamentalizm islomning ko'proq norozilik va salbiy jihatlarini bo'rttirib ko'rsatadi va dini haddan tashqari qattiq talqin qiladi. Bu esa asl islom mohiyatini buzadi va oxir-oqibat islomning yuksak maqsadlariga zid yo'nalishga olib boradi⁷.

Strategiya. Strategiya bu umumiy tushuncha bo'lib, ko'pincha mamlakatning siyosiy rejimiga (avtoritar, totalitar yoki demokratik) mos tarzda ta'riflanadi. U xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xavfsizlikni ta'minlash yo'lida resurslar va imkoniyatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Strategiya — shaxsiyat, tuzilma va jarayonlarni shakllantiruvchi manbadir. Uni belgilovchi omillar qatoriga ideologiya, madaniy yondashuvlar, tashkiliy va ijro mexanizmlari, siyosiy va harbiy institutlarning ta'siri, iqtisodiy resurslarni safarbar etish qobiliyati hamda yetakchilarning qarashlari kiradi.

Tashqi siyosatda strategiya milliy xavfsizlik va tashqi siyosat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni qamrab oladi. Ya'ni strategiya — bu tashqi siyosatdagi harakatlarning milliy xavfsizlikka qaratilgan qismi yoki milliy xavfsizlik tashqi siyosatga ta'sir o'tkazadigan maydondir.

Diplomatiya. Diplomatiya — mintaqaviy va xalqaro maydonda muzokara, kelishuv va muloqotga yo'naltirilgan harakatlar majmuidir. Diplomatiyada ideologiya bilan bir qatorda,

⁵ Mannheim, K. (1971), *The Ideology and Sociological Interpretation of Intellectual Phenomena*, New York: Oxford University. P 192 - 85

⁶ صدرا انتشارات: تهران. ایمان و انسان. (۱۳۷۷). مرتضی، مطهری.

⁷ Murray, W. (1999), *The Making of Strategy: Rulers, States and War*, Cambridge: Cambridge University Press. P 202-65

xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qoidalarini qabul qilish orqali milliy manfaatlarni himoya qilishga intilish kuzatiladi. Bu sohada davlatning xalqaro muhitni qanday tasvirlashi va milliy manfaatlarini qanday ta'minlashga harakat qilishi alohida ahamiyatga ega. Diplomatiya, shuningdek, xalqaro maydonda hukmron bo'lgan diskurs bilan davlatning aloqalar darajasini ham namoyon qiladi. Agar ideologiya sohasi asosan shaxsiyat va ma'no bilan bog'liq bo'lsa, strategik sohada xavfsizlik va yashab qolish, diplomatiya sohasida esa realistlik va hamkorlikka asoslangan yondashuv muhimdir⁸. Bunda asosiy maqsad — mintaqaviy muhit va xalqaro tizim bilan tinch va konstruktiv aloqalar o'rnatishdir.

Imom Xomeyniy tashqi siyosatidagi ideologik asoslari. Eron Islomiy inqilobi xalq hayotining turli sohalarida diniy nutqni qayta jonlantirdi va dini minimal talqinini jiddiy muhokama ostiga oldi. Imom Xomeyniy rahbarligida diniy shiorlar va masjid hamda husayniyalar markazida yuzaga kelgan bu inqilob, dinning ijtimoiy maydondagi mavjudligini e'lon qildi⁹. Xomeyniy rahbarligidagi inqilobiy voqea islomni xalqaro munosabatlarda faol o'yinchiga aylantirdi. Bu G'arbda islom asosidagi har qanday siyosiy harakatdan qo'rquv uyg'otdi. Shu bilan birga, 1970-yillardan boshlab islom butun dunyo musulmonlari, shuningdek, islomiy davlatlar uchun asosiy qudrat manbaiga aylandi.

Eron Islom Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi bu masalaga ravshan ishora qiladi: "Islom Respublikasi quyidagi e'tiqodlarga asoslanadi: 1) Yagona Xudoga imon va hukmronlikni faqat unga xos deb bilish hamda uning amrlariga itoat qilish zarurligi; 2) Uning xalifasi buyruqlarini bajarish¹⁰".

Bu doirada davlat boshqaruvining asosiy manbai islomiy ideologiya ekanligi aniq ko'rinadi. Islomiy ideologiya Eron tashqi siyosatiga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi.

1. Milliy o'zlikni va Eronning xalqaro rolini belgilashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

2. Shu asosda Eron Islom Respublikasining milliy manfaatlari va maqsadlarini shakllantiradi.

3. Xalqaro voqealar va boshqa davlatlarning xatti-harakatlarini talqin qilish uchun maxsus tafakkur doirasini yaratadi.

4. Tarixiy jarayon va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bosqichlarini belgilab, mamlakat uchun aniq istiqbol tasvirini beradi.

5. Islomiy ideologiya maxsus axloqiy-me'yoriy tizim ishlab chiqadi¹¹. Bu tizim Eron siyosatini, uning qarorlarini va boshqa davlatlarning siyosatini baholashda mezon vazifasini bajaradi¹².

Xomeyniy ideologiyasining markaziy belgisi — siyosiy islomdir. Qolgan barcha unsurlar ushbu yondashuv atrofida mazmun kasb etadi. Quyida uning asosiy ideologik belgilari keltiriladi.

Siyosiy islom. Imom Xomeyniy tafakkurida islom dini ijtimoiy yondashuv asosida talqin qilindi.

Din va siyosat o'rtasidagi munosabat masalasi ayniqsa Islomiy inqilobdan keyin keng muhokamalarga sabab bo'ldi. "Siyosiy islom" atamasini G'arb olimlari Eron inqilobini va unga

⁸ Rakel, E.P. (2007), "Iranian Foreign Policy since the Iranian Islamic Revolution: 1979- 2006", PGT6: pp.158-189.

⁹ Ezghandi, A. (2003). Iran's Foreign Relations, 1941-1979. Tehran: Qomes Publications. P – 332-20

¹⁰ Constitution of the Islamic Republic of Iran. (1979). Tehran: Assembly for the Final Review of the Constitution.

¹¹ Amini, A. (2011). History of Iran's Foreign Relations during the Pahlavi Era. Tehran: Sedaye Moaser Publications. P 222-56

¹² ۲۵- صص ۱، شماره ۴، بهار و بهار سال. خارجی سیاست فصلنامه. «تهدید موازنه مفهوم و ایران خارجی سیاست». (۱۳۸۹) ابراهیم، متقی. ۵۸.

o'xshash islomiy harakatlarni ifodalash uchun qo'llagan. Turli oqimlar mavjud bo'lsa-da, Eron inqilobi siyosiy islomning markaziy o'qi sifatida tan olinadi.

Imom Xomeyniy va Eron Islom Respublikasi asoschilari din va siyosatning uzviy bog'liqligini ta'kidlab, moddiy va ma'naviy qudratni uyg'unlashtirish asosida siyosiy tizimni barpo etdilar. Xomeyniyni fikricha: "Islom boshqa dinlardan farqli ravishda, shaxsiy, ijtimoiy, moddiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy, harbiy va iqtisodiy sohalarining barchasiga aralashadi va nazorat qiladi. Hatto eng kichik masalalardan ham chetda qolmagan¹³". Shuningdek, u islomni davlat boshqaruviga oid aniq qoidalar tizimi sifatida ta'riflab: "Islom o'ziga xos qonunlar bilan mamlakatni boshqaradigan hukumatdir. Islom qonunlari — islomiy hukumat qonunlaridir".

Imom Xomeyniy uchun islom — siyosiy va ijtimoiy dindir. Bu qarash sekulyar talqinlardan tubdan farq qiladi. U inqilobning dastlabki kunlaridanoq shunday qasam ichgan edi: "Vallohi, islomning barchasi siyosatdir." (Xomeyniy, 1989, jild 1: 270).

Islomiy birlik. Imom Xomeyniy mavjud milliy chegaralarni zarurat sifatida qabul qilar ekan, bir tomondan "butun dunyo solihlari hukumatini" orzu sifatida ilgari suradi, ikkinchi tomondan esa musulmonlar o'rtasida birlikni tashqi siyosatning markaziy yo'nalishiga aylantiradi.

U "ummat vahid" tushunchasini qo'llaydi va musulmonlarni birlashishga chaqiradi.

Uning fikricha, bu xalqaro miqyosda uchinchi frontni yaratish imkonini beradi. Masalan, u "Qirq hadis" asarida shunday yozadi: "Payg'ambarlarning asosiy maqsadlaridan biri insoniyatni birlikka chorlamoqdir. Buning natijasida jamiyat bitta tan, insonlar esa uning a'zolari bo'lib qoladilar¹⁴". Imom Xomeyniy davlat arboblari ham, musulmon xalqini ham birlikka da'vat etib, musulmon davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashni ta'kidlagan.

Irqchilikni inkor etish. Imom Xomeyniy islomiy birlik tamoyiliga qo'shimcha ravishda irqchilikni rad etdi. U barcha musulmonlarga murojaat qilib: "Islom amriga zid bo'lgan irqchilikdan saqlanib. Musulmon birodarlar bilan, ular qaysi mamlakatda, qaysi irqdan bo'lishidan qat'i nazar, birodarlik rishtalarini mustahkamlang, chunki islom sizni birodar deb atagan¹⁵".

Tinchlikka sodiqlik. Imom Xomeyniy tashqi siyosatdagi asosiy ideologik tamoyillardan biri sifatida tinchlikparvarlikni ilgari surdi: "Biz tinchlikni istaymiz. Biz butun dunyo xalqlari bilan tinchlikda yashashni istaymiz. Biz ularning orasida yashab, tinchlik bilan hayot kechirishni istaymiz¹⁶". Ammo u "har qanday tinchlik"ni qabul qilmas edi, balki "sharaflil islomiy tinchlik"ni asosiy shart sifatida ilgari surardi. Imom Xomeyniy tashqi siyosatda axloqiylikni muhim mezon sifatida ko'rdi. Unga ko'ra, islom axloqi inson va jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan tashqi siyosatda ham amal qilishi shart.

U shunday degan edi: "Islom — axloqiy din. Bizning barcha ishlarda axloqiy me'yorlar asosiy rolda bo'lishi kerak. Agar axloqiylikdan yuz o'girsak, islomiy hukumatning ham mohiyati yo'qoladi¹⁷".

Mustaz'aflarga homiylik. Imom Xomeyniy tashqi siyosatning eng muhim ideologik ustunlaridan birini mustaz'aflarga (ezilgan, zulm ostidagi xalqlarga) homiylik deb bildi.

¹³ Houshang Mahdavi, A. (1995). History of Iran's Foreign Relations. Tehran: Amir Kabir Publications. P-189-45,

¹⁴ طباطبائی علامه دانشگاه تهران. الملل بین روابط های نظریه پرتو در ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست. (۱۳۹۲) اصغر، افتخاری.

¹⁵ Berger, M. (2010), Realign and Islamic in Contemporary International Relations, Clingendael Diplomacy Papers, Netherlands Institute of International Relations, , No. 27, pp. 1-38.

¹⁶ Khomeini, R. (1970). Velayat-e Faqih: Islamic Government. Najaf/Beirut: Dar al-Tabligh al-Islami. P 343-76

¹⁷ Khomeini, R. (1964–1967/1970). Tahrir al-Wasila. Qom: Islamic Publication Institute. P 232-11

U shunday deydi: “Biz barcha ezilganlarning himoyachisimiz. Dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, ularning yonida turamiz¹⁸”. Bu qarash asosida Eron Islom Respublikasi ko‘plab mustamlakachilikka qarshi va ozodlik uchun kurashayotgan harakatlarni qo‘llab-quvvatladi. Shu bois, Eron tashqi siyosatida “mustaz’aflar fronti” tushunchasi shakllandi. Bu hozirda dunyo geosiyosiy holati uchun juda ham murakkab vaziyatdir. Chunki dunyoning turli burchaklaridagi har xil terrorchi guruhlar moliyalashtirish turli mintaqalarda xavfsizlik masalarining yanada chuqurlashtirmoqda.

Da’vat va inqilob g‘oyalari tashqi siyosatining yana bir ideologik asosi — islomiy inqilobni targ‘ib qilish edi. Uning fikricha, islomiy inqilob faqat Eronga xos emas, balki butun musulmonlar va hatto butun ezilgan xalqlar uchun namuna bo‘lishi kerak. U shunday ta’kidlagan: “Bizning inqilobimiz chegaralarda to‘xtab qolmaydi. U butun dunyo mustaz’aflari uchun ilhom manbaidir¹⁹”. Shu bois, Eron tashqi siyosatida inqilobiy g‘oyalarni boshqa mamlakatlarga yetkazish, ozodlik harakatlarini qo‘llab-quvvatlash muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Mustakbirlarga qarshi kurash. Imom Xomeyniy tashqi siyosatda “mustakbirlar” (zolim, istibdodchi kuchlar)ga qarshi kurashni alohida urg‘u bilan ta’kidlagan. Uning nazarida, AQSh va Sovet Ittifoqi o‘sha davrning eng yirik mustakbir kuchlari bo‘lib, ular musulmon xalqlarning asosiy dushmanlari edi. Shu bois u “na sharqiy, na g‘arbiy” shiorini ilgari surdi va Eronda tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan birini yaratdi.

Mustaqillik va g‘arbga qaramlikni rad etish. Imom Xomeyniy tashqi siyosatda to‘liq mustaqillikni talab qildi va g‘arb davlatlariga iqtisodiy, siyosiy va madaniy qaramlikni keskin rad etdi. U shunday degan edi: “Biz o‘z mustaqilligimizni saqlab qolamiz. Hech qachon G‘arbga ham, Sharqqa ham qaram bo‘lmaymiz²⁰”. Shu asosda Eron tashqi siyosatida “Na Sharqiy, na G‘arbiy, balki Islomiy Respublika” shiori muhim ideologik tamoyil sifatida qaror topdi.

Imom Xomeyniy tafakkurida milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik

Milliy manfaat tushunchasi. “Milliy manfaat” tushunchasi xalqaro munosabatlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan biridir. U davlatning o‘z hayotini saqlab qolishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan manfaatlar majmuasini bildiradi. Biroq bu tushuncha olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Masalan realistlar uchun milliy manfaat – davlatning kuch va qudratini oshirish demakdir. Liberalistlar uni ko‘proq iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlik doirasida talqin qiladilar. Konstruktivistlar esa milliy manfaatni davlatning o‘zini qanday anglashiga va ijtimoiy identitetiga bog‘lashadi. Imom Xomeyniy qarashlarida esa milliy manfaatlar islomiy ideologiya bilan chambarchas bog‘liq holda qayta ta’riflanadi. Uning nazarida, milliy manfaat faqatgina moddiy ehtiyojlar (iqtisodiy rivojlanish, hududiy yaxlitlik, xavfsizlik) bilan cheklanmaydi, balki islomiy qadriyatlar va inqilobiy maqsadlar bilan uyg‘un holda mavjud bo‘ladi. Shu bois, Eron Islom Respublikasining milliy manfaatlari Imom Xomeyniy tafakkurida quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Islomiy tizimni himoya qilish va uning barqarorligini ta’minlash;
2. Mustaqillikni saqlash va chet el kuchlariga qaram bo‘lmaslik;
3. Mustaz’aflar va musulmon ummatini qo‘llab-quvvatlash;

¹⁸ Khomeini, R. (1990–1999). Sahifeh-ye Imam (44 vols.). Tehran: Institute for Compilation and Publication of Imam Khomeini’s Works. P 232-23

¹⁹ Khomeini, R. (1990–1999). Sahifeh-ye Imam (44 vols.). Tehran: Institute for Compilation and Publication of Imam Khomeini’s Works. P 232-45

²⁰ Khomeini, R. (1990–1999). Sahifeh-ye Imam (44 vols.). Tehran: Institute for Compilation and Publication of Imam Khomeini’s Works. P 232-56

4. Inqilobiy g'oyalarni himoya qilish va tarqatish.

Milliy xavfsizlik tushunchasi. Milliy xavfsizlik odatda davlatning ichki barqarorligini saqlash va tashqi tahdidlardan himoyalaniishi sifatida talqin qilinadi. U harbiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarni o'z ichiga oladi. Imom Xomeyniy qarashlarida milliy xavfsizlik ham faqat harbiy mudofaa bilan cheklanmaydi. Unga ko'ra, milliy xavfsizlikning asosi — islomiy tizimning saqlanishidir. Agar islomiy tuzum saqlanib qolsa, millatning ham xavfsizligi ta'minlanadi. U shunday degan: “Bizning milliy xavfsizligimiz — islomiy tizimni saqlashdadir.

Agar islomiy tizim yo'qolsa, biz ham mustaqilligimizni, ham shon-sharafimizni yo'qotamiz²¹”. Shuningdek, Imom Xomeyniy milliy xavfsizlikni faqat Eron bilan cheklamagan, balki uni islomiy ummat xavfsizligi bilan bog'lab ko'rgan. Shu bois, Eron tashqi siyosati nafaqat milliy darajada, balki mintaqaviy va umummusulmon miqyosida ham xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan.

Milliy manfaat va milliy xavfsizlikning o'zaro aloqasi. Imom Xomeyniy qarashlarida milliy manfaat va milliy xavfsizlik bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ularning ikkalasi ham islomiy ideologiyaga tayanadi. Milliy manfaatlar – Eronning tashqi siyosatidagi ijobiy harakatlar (diplomatiya, iqtisodiy aloqalar, xalqaro hamkorlik)ning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

Milliy xavfsizlik – Eronning tashqi siyosatidagi salbiy yoki mudofaa xarakteridagi siyosatni (urush, qarshilik, mudofaa strategiyalari) belgilab beradi. Imom Xomeyniy yondashuvida bu ikki tushuncha uyg'unlashgan holda Eron tashqi siyosatining poydevorini tashkil qiladi.

Milliy manfaat va milliy xavfsizlikning tashqi siyosatda amaliy ko'rinishi. Imom Xomeyniy qarashlarida milliy manfaat va milliy xavfsizlik nazariy tushunchalar bo'lib qolmay, Eronning tashqi siyosatida amaliyotda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Ularning ta'siri inqilobdan keyingi tashqi siyosatdagi asosiy qaror va siyosiy yo'nalishlarda yaqqol ko'rinadi.

“Na Sharqiy, na G'arbiy” siyosati. Eron tashqi siyosatida inqilobdan keyingi eng muhim shiorlardan biri bu edi. Imom Xomeyniy AQSh va Sovet Ittifoqini “mustakbir kuchlar” deb atab, Eronga ular bilan ittifoq tuzishni man qildi. Bu siyosatning asosi milliy manfaat – mustaqillikni saqlash, milliy xavfsizlik – chetdan keladigan tahdidlarni oldini olish. Natijada, Eron tashqi siyosati G'arb yoki Sharqqa qaram emas, balki islomiy qadriyatlar asosida mustaqil yo'l tutishga qaratildi.

Isroilga qarshi siyosat. Imom Xomeyniy Isroilni “saron o'smasi” deb atadi va Eron tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan birini unga qarshi kurash deb belgiladi.

Bu qarashning manbai milliy manfaat – Falastin xalqini qo'llab-quvvatlash orqali musulmonlar o'rtasida birdamlikni mustahkamlash. Milliy xavfsizlik – Isroil va uning homiysi AQShni mintaqadagi asosiy xavf deb bilish. Shu bois, Eron Islom Respublikasi Falastin ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlashni o'z tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi.

Mustaz'aflarni qo'llab-quvvatlash siyosati. Imom Xomeyniy tashqi siyosatning asosiy vazifalaridan birini “butun dunyo mustaz'aflari”ni qo'llab-quvvatlash deb bildi. Bu siyosat milliy manfaat – Eronning inqilobiy obro'sini musulmon va mustamlakachilikka qarshi harakatlar oldida kuchaytirish asosida shakllangan. Milliy xavfsizlik – mustaz'af xalqlarni qo'llab-quvvatlash orqali Eronni xalqaro maydonda yolg'izlanib qolishdan himoya qilish.

Natijada, Eron ko'plab ozodlik harakatlari bilan aloqalar o'rnatdi va ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatladi.

²¹ Khomeini, R. (1990–1999). Sahifeh-ye Imam (44 vols.). Tehran: Institute for Compilation and Publication of Imam Khomeini's Works. P 232-210

Eron-Iroq urushida milliy xavfsizlik. 1980–1988 yillardagi Eron-Iroq urushi Imom Xomeyniy qarashlarida milliy xavfsizlik masalasining eng yorqin namunasidir. Urushni Saddam Husayn boshlagan bo'lsa-da, Imom Xomeyniy uni "Islom va kufr o'rtasidagi kurash" deb ta'rifladi. Uning fikricha, bu urush Eronning milliy xavfsizligini saqlash va islomiy tizimni himoya qilish uchun majburiy jang edi. Shu sabab, u "urush, urush oxirigacha" shiorini ilgari surdi va taslim bo'lishni milliy xavfsizlikka xiyonat deb bildi.

Inqilobni eksport qilish. Inqilobni eksport qilish siyosati ham Imom Xomeyniy qarashlaridagi milliy manfaat va milliy xavfsizlikning uyg'un ko'rinishidir. Milliy manfaat – islomiy qadriyatlarni boshqa mamlakatlarga yoyish orqali Eronning mintaqadagi ta'sirini oshirish. Milliy xavfsizlik – boshqa musulmon xalqlarni uyg'otish orqali Eronni mustakbir kuchlarga qarshi yolg'iz qoldirmaslik. Shu bois, inqilobni eksport qilish tashqi siyosatning nafaqat mafkuraviy, balki amaliy jihatdan ham ustuvor yo'nalishiga aylandi. Imom Xomeyniy tafakkurida milliy manfaat va milliy xavfsizlik — tashqi siyosatdagi asosiy ikkita ustun bo'lib, ular islomiy ideologiya bilan uyg'unlashgan holda Eron tashqi siyosatini shakllantirgan.

XULOSA.

Ushbu maqolada Imom Xomeyniyning tashqi siyosat qarashlari, xususan, ideologiya, milliy manfaat va milliy xavfsizlik o'rtasidagi nisbat tahlil qilindi. Ideologiya Imom Xomeyniy qarashlarida markaziy o'rinni egallaydi. U tashqi siyosatning barcha yo'nalishlarini belgilovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. Imom Xomeyniy ideologiyani shunchaki shior darajasida emas, balki hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi amaliy dastur sifatida ko'rgan.

Milliy xavfsizlik Imom Xomeyniy tafakkurida islomiy tizimni saqlash bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, Eronning milliy xavfsizligi tizimning saqlanib qolishiga va tashqi tahdidlardan himoyalaniishiga qaratilgan. Shu sabab, Eron tashqi siyosatida mudofaa va strategik qarorlar milliy xavfsizlik konsepsiyasiga asoslangan.

Milliy manfaatlar esa tashqi siyosatning ijobiy maydonida, ya'ni diplomatik va iqtisodiy aloqalarda namoyon bo'ladi. Biroq bu manfaatlar ham sof moddiy mazmunga ega emas, balki islomiy ideologiya bilan uyg'unlashgan holda qayta talqin qilinadi. Imom Xomeyniy qarashlarida milliy manfaat va milliy xavfsizlik bir-biridan ajralmagan tushunchalardir. Ikkalasi ham islomiy ideologiyaga tayanadi va Eron tashqi siyosatini shakllantiruvchi asosiy ustunlardir.

Inqilobdan keyingi tashqi siyosatda "Na Sharqiy, na G'arbiy" siyosati, Isroilga qarshi kurash, mustaz'aflarni qo'llab-quvvatlash, Eron-Iroq urushidagi qarashlar va inqilobni eksport qilish siyosati — barchasi milliy manfaat va milliy xavfsizlikning ideologiya bilan uyg'unlashgan amaliy ko'rinishlaridir. Natijada, Imom Xomeyniy tashqi siyosatida ideologiya, realizm va oqilonalik uyg'unlashib, Eron Islom Respublikasini xalqaro maydonda o'ziga xos o'yinchiga aylantirdi. Imom Xomeyniy tashqi siyosati ideologiya, milliy xavfsizlik va milliy manfaatlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali shakllangan bo'lib, bu yondashuv inqilobdan keyingi Eronning xalqaro siyosiy mavqeini belgilab berdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. نشر: تهران. ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست بررسی برای تحلیلی چارچوبی. (۱۳۸۶) الشروح، رمضان، نی.
2. انتشارات و چاپ مرکز: تهران. خارجی سیاست در گیری تصمیم های مدل و مبانی. (۱۳۸۲) حسین سید، زاده سیف، خارجه امور وزارت.
3. «لبنان در ایران اسلامی جمهوری عمومی دیپلماسی». (۱۳۹۲) امیر، صدر فاطمی و محمد حسن، الاسلامی شیخ، ۴۹–۷۴ صص، ۴ شماره، سوم سال، اسلام جهان های پژوهش فصلنامه.

4. جهان های پژوهش فصلنامه. «شناختی هستی رویکرد: الملل بین روابط و اسلام». (۱۳۹۴) داوود، زندی غریاق ۱۳۶-۱۱۳ صص، ۴، شماره، پنجم سال، اسلام.
5. صدرا انتشارات: تهران. ایمان و انسان. (۱۳۷۷) مرتضی، مطهری.
6. صدرا انتشارات: تهران. قرآن با آشنایی. (۱۳۷۷) مرتضی، مطهری.
7. عرب کشورهای در ایدئولوژیک منازعات و فرهنگی های شکاف». (۱۳۹۳) لقمان، قنیری و اشرف علی، نظری «۲۰۱۴-۲۰۱۰ سیاسی تحولات بر تأکید با خاورمیانه
8. و انسانی علوم پژوهشگاه: تهران. اصول و مبانی: ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست. (۱۳۹۰) حسین، کاظمی. فرهنگی مطالعات.
9. نی نشر: تهران. اسلامی جمهوری در ایدئولوژی و مشروعیت، قدرت. (۱۳۸۰) حسین، بشیریه.
10. مطالعات فصلنامه. «عربی بهار از پس خاورمیانه در ایران امنیتی های چالش». (۱۳۹۵) محمدرضا، موسوی ۱۲۰-۸۹ صص، ۲، شماره، نوزدهم سال. راهبردی
11. کتاب بوستان: قم. ایران خارجی سیاست و شیعه ژئوپلیتیک. (۱۳۸۷) الدین جلال، خوشچهره.
12. تهران. الملل بین روابط های نظریه پرتو در ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست. (۱۳۹۲) اصغر، افتخاری. طباطبایی علامه دانشگاه
13. و بیست سال. خارجی سیاست فصلنامه. «تهدید موازنه مفهوم و ایران خارجی سیاست». (۱۳۸۹) ابراهیم، متقی. ۵۸-۲۵ صص، ۱، شماره، چهارم
14. تحقیقات مرکز: تهران. ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست مبانی و اصول. (۱۳۷۸) رسول سید، سجادیور. استراتژیک
15. قومس نشر: تهران. ایران اسلامی جمهوری خارجی سیاست و ملی امنیت. (۱۳۹۱) نصرالله، ذاکریان.
16. Berger, M. (2010), Realign and Islamic in Contemporary International Relations, Clingendael Diplomacy Papers, Netherlands Institute of International Relations, , No. 27, pp. 1-38.
17. Halliday, F. (2005), the Middle East in International Relations; Power, Politics and Ideology, Cambridge: Cambridge University Press.
18. Hunter, S.T. (2010), Iran's Foreign Policy in the post-Soviet era, Santa Barbara: Praeger.
19. Mannheim, K. (1971), the Ideology and Sociological Interpretation of Intellectual Phenomena, New York: Oxford University.
20. Murray, W. (1999), the Making of Strategy: Rulers, States and War, Cambridge: Cambridge University Press.
21. Payne, R.J. (1995), The Clash with Distance Cultures, New York: State University Press.
22. Rakel, E.P. (2007), "Iranian Foreign Policy since the Iranian Islamic Revolution: 1979-2006", PGT6: pp.158-189.